

THE ROLE OF PARENTS IN THE PSYCHOPROPHYLAXIS OF DEVIANT BEHAVIOR IN YOUTH

**Asatullayeva Mashhura Olimjon qizi.
Oltiariq pedagogika kolleji.Maxsus fan oqituvchisi.
Sirtqi 4-kurs talabasi Doniyor Ibrohimov**

Resume: this article emphasizes the importance of the role of parents in the psycho-prophylaxis of deviant youth behavior in the family.

Keywords; Selfishness, disappointment, infantilism, primitive, sexual identification, negative, delinquency, deviant behavior.

Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudratini manbai halqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Bu borada o'zbek xalqining oilada farzand tarbiyalashdagi tajribasi diqqatga sazovordir. Bu tajribada milliy tarbiya an'analari, inson ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan umuminsoniy, diniy qadriyatlar ham o'z ifodasini topgan. Mustaqillik sharoitida oilada farzand tarbiyalash borasidagi an'analari davr ruhi va ehtiyojlari bilan bog'liq yanada kattaroq ahamiyat kasb etmoqda. SHu sababli oilani mustahkamlash, uning ma'naviy-axloqiy tarbiya borasidagi ahamiyatini kuchaytirish masalasi davlat siyosatida tobora katta o'rin olmoqda¹". Bolaga ta'lif-tarbiya berishni uy shoroitida olib borish- bu juda mashaqqatli va tinimsiz ishlashni talab qiladigan mehnatdir. Bunday ma'suliyatni o'z zimmasiga olib, endigina ish boshlagan pedagoglar uzoq muddat olib boradigan mashg'ulotlardan sezilarli natija bo'lmaganidan umidsizlikka tushib qolishadi. Lekin bunday bolalar bilan ishslash kishidan ayniqsa, katta diqqat va sabr matonatni talab qiladi. Bolaning harakatga, mahnatga bo'lgan ishtiyoqini oshirish hattoki, ta'kidlash unchalik lozim bo'lmagan narsalarga to'xtalish, uni qayta-qayta rag'batlantirish, maqtab turush, ta'lif olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortirish shuningdek, bolada hamma ishni risoladagidek bajaraman degan ishonchni rivojlantirish eng muhim jihatlardan deb hisoblanadi.

Zero, davlatimiz birinchi rahbari Islom Karimov aytganlaridek «Oila sog'lom ekan jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan- mamlakat barqrordir».

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi holati oila oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy vazifalarni qo'yemoqda. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, odamlarning o'zaro muloqat, munosabatlar doirasi inson ruhiyatida hissiy emostional o'zgarishlarni vujudga keltirmoqda va bular oilaviy hayot xarakteriga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Oilani qadriyat sifatida tavsiflash va uning jamiyat hayotidagi nufuzini ta'kidlash bilan birgalikda uni mustahkamlovchi omillarning rolini o'rganish, ayniqsa, yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash, ularda kelajakka ishonch, o'z xalqi va yurti taqdiriga nisbatan mas'uliyat hislarini shakllantirish katta ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masaladir. Chunki, O'zbekiston yildan yilga rasmiy nikohlar oshib borayotgan mamlakatlardan biri bo'lib, unda nikoh ajrimlarini kamaytirish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa yoshlarda oila va nikoh, istiqboldagi hayotga nisbatan to'g'ri tasavvurlarning shakllanganligiga, ularning optimizm ruhida tarbiyalanganligiga bevosita bog'liqdir. Afsuski, amalga oshirilayotgan say'i-harakatlarga qaramay, yoshlarning oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyor bo'lmaganligi, oilaning sog'lom ma'naviy muhiti to'g'risida aniq tasavvurlarga ega bo'lmaganligi tufayli yosh

¹ I.A Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li "T." O'zbekiston" 1993 yil 74b.

oilalar o'rtasida nikoh ajrimlari hamon qayd etilmoqda. Respublikamizda yiliga o'rtacha 13-15 mingga yaqin nikoh ajrimlari qayd etiladi. Ularning aksariyatida yosh farzandlar bo'lib, ular taqdir taqozosini bilan faqat onalari, bobo va buvilari qaromog'ida qolmoqdalar.

Oilada faqat bir ota yoki ona bo'lsa, bunday oila noto'liq oila deb ataladi. Noto'liq oila haqida gapirliganda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, noto'liq oilalar turlichay yuzaga keladi. Oilada er-xotinlardan birining vafot etganligi tufayli yoki ularning ajralishi tufayli oila noto'liq bo'lib qolishi mumkin. Albatta, oilada ota yoki onaning vafot etishi bu ulkan fojea, lekin bunday oilalarda marhumning ruhi hurmati, unga nisbatan, uning sha'niga ijobiy munosabatlar saqlanib qoladi. Biroq er-xotinning ajralishi sababli yuzaga kelgan noto'liq oilalarda «tirik etim» bolalar qoladi. «Tirik etimlik» jamoatchilik o'rtasida, ayniqsa bolalar jamoalarida (bog'chada, mактабда, tengdoshlar davrasida) nisbatan kuchliroq qoralanadi. Ajralish faqatgina ajralgan er-xotinlarga emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ajralish otasiz yashayotgan qiz bolaning his-tuyg'ulariga, onasiga bo'lgan mehriga, qiz bolada shakllanadigan ota obraziga va otasiz o'sayotgan qizning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Ko'pincha ajralishayotganlardan ajralish sababi so'ralsa, ular qandaydir hamma uchun, birdek bo'lib qolgan sabablarni ko'rsatishga harakat qilishadi. Masalan, «xarakterimiz mos tushmadi», «o'zga shaxsnинг aralashuvi», «qo'pollik», «moddiy qiyinchilik», «ichkilikbozlikka berilish», «yashash sharoitining noqulayligi», «ota-onalarning noo'rin aralashuvi» kabilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oiladagi ma'naviy-ruhiy iqlim qanchalik mustahkam va er-xotinlar bir-birlarini qanchalik yaxshi tushunsalar bu «sabablar» oilaning inqiroziga asosiy sabab bo'la olmaydi. Aksincha vaziyatlarda esa jamiyat uchun - noto'liq oilalar soni ko'payadi, oilalararo yoki qarindoshlararo adovat yuzaga keladi, bir jinsning ikkinchi jinsga nisbatan nafrati paydo bo'ladi, foxishabozlik ortadi, teri-tanosil kasalliklarining ko'payishi kuzatiladi, shaxsnинг ijtimoiy faoliyati susayadi. Erkaklarda yolg'izlik hissining ortishi, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilishni va turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ayollarda yolg'izlik hissining ortishi, qayta oila qurish imkoniyati cheklanganligi, nevrozlar, stresslar, turli hastaliklar, o'z joniga qasd qilish kabilarga olib kelishi mumkin.

Biz ko'p hollarda ayollarga bola-chaqa, uy-ro'zg'or, oila uchun jon kuydirish, ular uchun o'zidan kechishni targ'ib qilamiz, ulardagи bu xususiyatni eng asosiy - ayollik sifati deb baholaymiz. Lekin aynan shunday ayollar asta-sekin o'z ayollik mohiyatlaridan uzoqlasha boshlaydilar, shaxsiy vujudiy egoizmlarini, ayol ekanliklarini unuta boshlaydilar. Ular uchun bunday hayot tarzi go'yo qoniqarlidек, shu bilan o'zlarini baxtli deb his qilsalar ham, lekin ongsiz ravishda bu holat ularda qondirilmagan mayllar tufayli paydo bo'ladigan psixik holat - frustrasiyani paydo qiladi, nimadandir ko'ngli to'lmaslik, asabiylik, xafaqonlik kabi psixik o'ng'aysizlikka sabab bo'ladigan sharoit yaratadi.

O'zbek oilalarida ota va ona, ota-onasi va bolalar, bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy ko'rinishlari haqida behisob fikrlarni aytish mumkin. Odob, axloq, andisha asosiga quriladigan bunday munosabatlar bir qaraganda to'laqonli ijtimoiy individni shakllantirish uchun etarlidek tuyuladi. Bularning hammasi aslida oilaning baxti, oila a'zolarining qoniqish hissi uchun etarli bo'lishi kerak edi. Lekin ming afsuski xali hozir ajralishlar sonining ko'pligi, ajralmay, lekin baxtsiz yashayotgan oilalarning etarlicha topilishi bizning bu erda nimanidir hisobga olmayotganligimizni, nimanidir unutib qo'yayotganligimizni, nimagadir etarlicha e'tibor bermayotganligimizni ko'rsatadi. Fikrimizcha, ana shu nazardan chetda qolayotgan narsa bu ayolning "shaxsiy vujudiy egoizmi" bo'lishi mumkin. Ayolning "shaxsiy vujudiy egoizmi"ning to'la qondirilmasligi unda frustrasiya (qoniqtirilmagan stimulla什gan ehtiyojlar mavjudligi bilan xarakterlanadigan psixik holat) vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Natijada ayolda o'z hayotidan xafsalasi pir bo'lish, asabiylik, xavotir va umidsizlik holatlari paydo bo'ladi. Onaning bu holati bevosita uning hayotiy davomchisi bo'lgan bolasining shaxsiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu narsa yaxshi ma'lumki, hayotdan quvona olmaydigan, o'z ichki mohiyatidan uzoqlashgan, shaxsiy vujudiy "egoizmini" yo'qotgan ona go'yoki "niqobda" yashaydi va o'z bolasi uchun qopqon yaratadi. Emostiyalarining cheklanganligi sababli bunday ona o'z bolasini emostional tobeklida ushlab turish uchun kuchli ehtiyoj sezadi va shu maqsadda o'z bolasi bilan o'zaro faoliyatning o'ziga xos usulini yaratadi. Uzoq davom etadigan "infantillik" (organizm jismoniy va psixik taraqqiyotining tormozlanishi)ni rejalashtiradigan bunday vaziyat bolaga o'z onasi bilan munosabatning primitiv usulini o'rgatadi, uning mehyordagi taraqqiyotga tomon harakatini to'xtatadi va boladan onaning har qanday yashirin istaklarini albatta bajarishni talab qiladi.

Yaxshi ona bo'lish uchun eng avvalo "ayol bo'lish" va "baxtli odam" bo'lish kerak. O'zini, hayotini, butun tabiiy ehtiyojlarini bolalarga, oilaga qurban qilish yaxshi ona bo'lish degani emas. Bunday ona avvalo o'zini aldaydi, qolaversa o'zi xohlamagan holda, ongsiz ravishda bolalar shaxsi taraqqiyotini ham barbod qiladi.

Oila sharoitidagi ruhiy zo'riqish oila a'zolari tarkibining to'liq bo'lmasligi, o'zaro munosabatlar murakkabligi, ayollar ishlab chiqarishda, davlat tashkilotlarida mehnat qilish bilan bir qatorda uy-ro'zg'or ishlari bilan tinimsiz bandligi, charchoqdan so'ng etarli dam olmaslik turli tana kasalliklari, depressiya, asabiy holatlarga, oila garmoniyasi buzilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari farzand tarbiyasiga nisbatan befarqlik natijasida televizor yoki kompyuter oldida ko'p vaqtini o'tkazadigan bolalarning kattalar olamiga muddatdan oldin kirib borishi kuzatiladi, shuningdek, bu xol bolalarda tez toliqish, parishonxotirlikni yuzaga keltiradi. Noto'liq oilada voyaga etayotgan farzandlar er va xotin o'rtaqidagi yaxlit munosabatlarning guvohi bo'limgani uchun, ushbu munosabatlar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmay voyaga etadi. Yolg'iz o'zi bola tarbiyasi bilan shug'ullanib, uni voyaga etkazayotgan ayol bola tasavvurida ketib qolgan otasi haqida negativ (salbiy) tushunchalarni yuzaga keltirishi tabiiy xol, ayniqsa bu ajrashish og'ir hissiyotlarni qoldirgan bo'lsa. Otasiz voyaga etayotgan o'g'il bola erkaklar to'g'risidagi salbiy fikrlarni ko'p eshitgan sari, bu tushunchalarning noto'g'riliqiga qiyinchilik bilan ishonadi. Bu qiyinchilik esa unda ichki kurashni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Onasi tomonidan ko'p erkalatilgan yoki jamiyatda asosan, ayollar ustivor degan fikrnga borgan o'g'ilda erkak kishilarga nisbatan befarqlik, bepisandlik munosabati vujudga keladi. Ko'p xollarda o'g'il boladagi yolg'iz onaga yordam berish istagi uni erkin hayotdan voz kechishga undaydi. Oqibatda ko'p o'g'il bolalarning onalari oldida qolishi natijasida qarama-qarshi jinsga e'tibor qilishi susayadi yoki aksincha onaga qarshi chiqib, uydan ketish, onani, ayolni behurmat qilish xollari uchraydi. Aybdorlik hissi kuchaygan sari bunday bolalarda ayollarga nisbatan qo'pol muomala shakllanadi yoki aksincha umri davomida ularga bo'ysunib yashash vujudga keladi.

Bundan tashqari noto'liq oilada ona tomonidan katta o'g'ilga ota rolini yuklab, o'g'il pozistiyasiga chek qo'yish ham kuzatiladi. Aksariyat xolatlarda yolg'iz onalar yosh o'g'illariga beixtiyor ma'naviy tazyiq o'tkazadilar, ya'ni «otangdan ko'rmaganimni sendan ko'ray», «katta bo'lsang menga qilasan, olib berasan...» kabi fikr-mulohazalari bilan bolaning yoshlik davriga xos bo'lgan beg'uborlikni yo'qotib, unga katta odamning mas'uliyatini yuklab qo'yadi.

Noto'liq oilada voyaga etayotgan qiz bola ham ham ayol va erkakning o'zaro munosabatlariga noto'g'ri yondashishi mumkin. Uning shaxsiy jinsiy idenfikastiyasi o'zgaruvchan bo'lishi, ya'ni u hayotda itoatkor bo'lib, hamma narsaga rozi bo'lishi, hech narsani talab qilmasligi, yoki aksincha, barcha narsani o'zi mustaqil qilib, erkinlikni talab qilishi kuzatiladi. Bunga misol tariqasida hozirgi kunda rivojlanib borayotgan emansipastiya (ozod bo'lishga intilish) jarayonini keltirish

mumkin. Ya'ni, yolg'iz ayol farzand tarbiyasida epchillikni, uddaburonlikni, tadbirkorlikni namoyon etib, oiladagi barcha muammoni o'z elkasiga olgan oilada voyaga etgan qiz bola turmushga chiqqandan so'ng erkakning ustun kelishiga yoki muammolarni erkak tomonidan hal qilinishiga ko'nmasligi ham mumkin. Biroq ayol-onan erkaklarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lsa, bolalarda salbiy tushunchani vujudga keltirmaydi. Ayol o'zi tanigan, hurmat qilgan erkaklarga nisbatan o'z farzandlarida ijobiy munosabatni shakkantirish imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. «Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz».- T.: «O'zbekiston»-2016 yil.
2. Mirziyoev SH.M. «Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz».- T.: «O'zbekiston»-2017 yil.
3. Mirziyoev SH.M. «Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak».- T.: «O'zbekiston»-2017 yil.
4. Oila axloqi va odobi. Uzaqov X., E. G'oziev, A. Orordova T; 1995 - 200 b.
5. Солиев, Ф. С., Абдуллаева, А. Р., & Джухонова, Н. Х. (2019). Формирование психологической культуры и этноценностных ориентаций студенческой молодежи. In *Психологическое благополучие современного человека* (pp. 334-339).
6. Djuxonova N. X., Mamajonova SH. Mahalla-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning muhim omili sifatida //innovatsii v pedagogike i psixologii. – 2021. – Т. 4. – №. 7.
7. Исакова, М. Т. "Эмпирическое исследование взаимосвязи отношения личности к здоровью с индивидуально-динамическими характеристиками." П 86 Психология управления персоналом и экосистема наставничества в усло-виях изменения технологического уклада. Вторая международная научно (2021): 544.
8. Исакова М. Т. Современное образование (узбекистан) //современное образование (узбекистан) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий". – №. 8. – С. 45-52.
9. Исакова, М. Т. Современное образование (узбекистан). современное образование (узбекистан) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий", (8), 45-52.
10. Isaqova M. T. Etnopsixologiya //Toshkent: Iqbol-Turon. – 2007.
11. Ostanakulov A.D The history and role of Islam and psychology in the education system in Central Asia. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions https://RESERCHJET.ACADEMIASCIENCE.ORG ISSN: 2776-0960 Impact Factor: 7.655 VOLUME 2, ISSUE 4, APRIL - 2021
12. Rustamovna A. A. et al. Ethnopsychological features of the preparation of student girls for family life //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 5. – С. 974-979.
13. Rustamovna, Abdullaeva Arofat, and Djukhonova Noxida. "Ethnopsychological features of the preparation of student girls for family life." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.5 (2021): 974-979.
14. Rustamovna, A. A., & Noxida, D. (2021). Ethnopsychological features of the preparation of student girls for family life. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 974-979.

- 15.Джухонова Н. Подготовка учащихся к семейной жизни как психолого-педагогическая проблема //ББК Ю953. – 2020. – С. 68.
- 16.Джухонова, Н. "Подготовка учащихся к семейной жизни как психолого-педагогическая проблема." ББК Ю953 (2020): 68.
- 17.Джухонова, Н. (2020). Подготовка учащихся к семейной жизни как психолого-педагогическая проблема. ббк ю953, 68.
- 18.Djuhonova N. PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE AS A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEM //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 68-71.
- 19.Djuhonova, N. "PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE AS A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEM." Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.
- 20.Djuhonova, N. (2020). PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE AS A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEM. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 68-71).
- 21.Джухонова Н. Х., Иброхимов Д. ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ ДЕВУШЕК-СТУДЕНТОК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 829-835.
- 22.Джухонова, Нохида Хаётжоновна, and Дониёр Иброхимов. "ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ ДЕВУШЕК-СТУДЕНТОК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ." Scientific progress 2.4 (2021): 829-835.
- 23.Джухонова, Н. Х., & Иброхимов, Д. (2021). ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ ДЕВУШЕК-СТУДЕНТОК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ. Scientific progress, 2(4), 829-835.
- 24.Abdukadirova L. Y., Mirzajonova E. T. The importance of reading competencies in the context of the “industry 4.0” industrial revolution //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 205-210.
- 25.Abduqodirova L. Y., Sobirova A. IQTIDORLI O'QUVCHILARDA SAMARALI KOPING XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISH MAMLAKAT INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1357-1363.
- 26.Abduqodirova, L. Yu, and Aziza Sobirova. "IQTIDORLI O'QUVCHILARDA SAMARALI KOPING XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISH MAMLAKAT INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1357-1363.
- 27.Abduqodirova, L. Y., & Sobirova, A. (2022). IQTIDORLI O'QUVCHILARDA SAMARALI KOPING XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRISH MAMLAKAT INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA. Academic research in educational sciences, 3(5), 1357-1363.